

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI BADIY ADABIYOTLARNI MUTOLAA QILISH JARAYONIDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPITENTSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI

Xodjayev Dilshod Xamidxonovich
 NamDU doktoranti, 45-MMI o'qituvchisi
dilshod8282772@gmail.com

Izatullayeva Mukaddas Nosirxonovna
 6-sonli umum talim maktab o'qituvchisi

Anotatsiya: ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarini badiiy adabiyotlarni mutolaa qilish jarayonida sotsiolingvistik kompetentsiyasini rivojlantirishning uslubiy asoslari tug'risida fikrlar yuritilgan. Unda hozirgi kunda chet tilini umumiy o'rta ta'limda, kasb ta'limida o'qitilishdagi yutuq va kamchiliklari yuzasidan muloxazalar yuritilgan.

Kalit so'z: triada, sotsiolingvistika, kompetensiya, gumanitar, motivatsiya, deklorativ, progmatik, psevd, ko'nikma, konseptsiya.

Khodjaev Dilshod Khamidkhanovich
 NamSU PhD student, teacher at 45-SBS
 Izatullayeva Mukaddas Nosirkhonovna
 Teacher of general educational school No. 6

METHODOLOGICAL BASIS OF DEVELOPMENT OF SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE OF HIGH GRADES' STUDENTS IN THE PROCESS OF READING FICTION LITERATURE

Abstract: this article discusses the methodological foundations of the development of sociolinguistic competence of teenagers at school in the process of reading fiction. It discusses the achievements and shortcomings of teaching a foreign language in general secondary education and vocational education today.

Key words: triad, sociolinguistics, competence, humanitarian, motivation, declarative, pragmatic, pseudo, skill, concept.

Butun dunyoda ta'lim ustuvorligi insoniyatga ayon bo'lgan bugungi kunda madaniyat-ma'rifat-ma'naviyat triadasining o'zaro yaqin aloqasi orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatiga egamiz. Madaniy va ma'naviy qadriyatlarsiz olingan ta'limning foydali jixatlari kam bo'lishi bilan bir qatorda uni madaniyat-ma'rifat-ma'naviyatdan ajralgan holda o'qitish murakkabliklarga olib keladi. Ayniqsa ularni ta'sirini gumanitar

fanlarni o'qitishda hissasi katta. Madaniy ta'lim deganda shaxsning madaniy va ma'naviy qadriyatlariga qaratilgan ta'limning butun sohasi tushunsh mumkin. Insonga ta'lim tarbiya berishdan maqsad uning kelgusida jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lish maqsadi qoyiladi, ta'lim oluvchining ham ta'limdan najoti kelgusida o'zi istiqomat qilayotgan yoki boshqa bir jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishdir.

Ta'lim-tarbiyaning "lokomativi" bu ta'lim oluvchilarga beriladigan motivatsiyadir. Motivatsiyani ta'lim jarayonini kotalizatori deb ham atash mumkin. Tug'ri va o'rinli berilgan motivatsiya ta'lim jarayonida juda ham foydali bo'lishi mumkin. Motivatsiyalar tug'ridan tug'ri, umumiy, qaratilgan va boshqalar bo'lishi mumkin. Ushbu motivatsiyalar ta'lim beruvchi ustozlar, ota-onalar, o'z kasbini yetuk mutahassislari, murakkab vaziyat va hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o'tgan insonlar, davlat arboblari va yozuvchilar tomonidan berilganda tasirli bo'ladi. Hukumat tomonidan chiqarilgan qaror va farmoishlar ham yoshlarga bilim olish uchun katta turtki bo'lmoqda. Buni yaqqol chet tilini o'rganishga qaratilgan qaror va farmoishlarni respublikada chet tillarni o'rganish va uni bilish salohiyati o'sganligida ko'rish mumkin. Shu maqsadda yoshlarni chet tillarni o'rganish samaradorligini oshirish uchun bir qator tanlovlar va imtiyozlar joriy etilgan. IELTS xalqaro sertifikatini 7 baliga ega bo'lgan yoshlarga imtihon uchun qilgan to'lovlarini davlat tomonidan qoplab berish, maktablar o'rtasida "Eng yaxshi chet tili bilimdoni" tanlovining g'olib va sovrindorlariga hattoki tuman bosqichidan boshlab ko'p miqdordagi pul mukofotlari bilan rag'batlantirilishi ko'plab yoshlarni kelgusida tanlagan kasbi bilan birqatorda chet tillarni o'rganishga undab kelmoqda.

Respublikada yoshlarni kitob o'qishga undovchi bir qator qarorlar chiqarilgan bo'lib ularni ijrosi yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Respublika bo'ylab "Yosh kitobxon" tanlovi yoshlar o'rtasida kitoblar mutolaasiga katta qiziqishga sabab bo'lmoqda. Bu tanlovda nafaqat o'zbek klassikasi balki jahon durdona asarlaridan ham kitoblar tanlab olingan. Bu tanlovlar natijasida bir necha yillar oldin kamsonli o'quvchilariga ega kutubxonalar, kitob do'konlari yana yoshlarni sevimli maskaniga aylandi. Aholining badiiy asarlarni o'qishga qiziqishi qayta jonlandi va shu sababli o'quvchilarni badiiy asarlarga ihtiyojini qondirish maqsadida nashriyot va bosmahonalar ish jarayonini jadallashtirish maqsadida bir qator qaror va farmoishlar hukumat tomonidan qabul qilindi.

Yuqorida aytilganidek barcha rivojlanishning negizida yaxshi o'zlashtirilgan bilim turadi, yaxshi bilim o'zlashtirishga motivatsiya sabab bo'ladi. Ba'diiy asarlardan olingan motivatsiyalar madaniy va ma'naviy qadriyatlarga boy bo'libgina qolmay o'quvchi yoshlarni tanqidiy fikrlash orqali bilim va malakalarini oshiradi.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim juda qadrlanadi, va ko'pchilik uni olishga intiladi. Bugungi kunda o'quvchilarga maktablar, kollejlar va boshqa ta'lim beruvchi muassasalarda ilm-fan, texnika va madaniyatning turli sohalarida keng ko'lamda bilim

beriladi. Biroq, ushbu dargohlarda olingan fundamental bilim o'quvchiga jamiyatda baxtli bo'lishga kamlik qiladi. Olingan bilim va tajribasi orqali inson kelgusi hayotida o'z ehtiyoji uchun pul ishlab topa oladi, jamiyatda uning bilim va malakasiga talab bo'ladi, biroq insonning chinakam baxti uchun bu kamlik qiladi. Zamonaviy ta'lim insonning jamiyat oldida obro'-e'tiborli bo'lib, ro'zg'or tebratish imkonini beradi. Ammo, fanlarga bag'ishlangan adabiyotlarda insonni salbiy odatlarga moyilligini cheklash, o'zining ichki salbiy odatlarini tiya olish kabi hususiyatlarga ega emas. Bundan tashqari ushbu darsliklardan odamlar va tabiat o'rtasida uyg'un munosabatlarni o'rnatish haqida bilim berilmaydi.

Umumta'lim maktablarida chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda xorijiy tilni zamonaviy dunyo madaniyatlari va tsivilizatsiyalari o'rtasidagi muloqotda global madaniy makonga yanada moslashuvchan kirish uchun vosita sifatida ishlatish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ushbu maqsad talabalarni hayotning turli sohalarida madaniyatlararo muloqotga tayyorlash uchun chet tilidan foydalangan holda o'zaro bog'langan kommunikativ va ijtimoiy-madaniy rivojlanishni o'z ichiga oladi.

Chet tiliga nisbatan Yevropa Kengashining meyorlarida chet tili sohasidagi vakolatlarning ikki turi ko'rib chiqiladi: umumiy kompetensiyalar (General competences) va kommunikativ til kompetensiyasi (Communicative language competence).

Umumiy kompetensiyalarga quydagilar kiradi [1. 65-72-betlar]:

- o'rganish qobiliyati (ability to learn)
- ekzistensial kompetensiya (existential competence)
- deklarativ bilim (declarative knowledge)
- ko'nikma va qobiliyatlar (skills and know-how)

Kommunikativ til kompetensiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- lingvistik komponent (linguistic component-lexical, phonological, syntactical knowledge and skills)
- sotsiolingvistik komponent (sociolinguistic component)
- pragmatik komponent (pragmatic component-knowledge, existential competence and skills and know how relating to the linguistic system and its sociolinguistic variation).

Zamonaviy maktablarda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayoni yetarli darajada muvofiqlashtirilmagan, buning natijasida real muloqot jarayoni va ta'lim berish maqsadida yaratilgan sun'iy vaziyatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

Sun'iy ravishda tuzilgan va darsliklarda keltirilgan mavzular o'quv jarayonida o'quvchilarda to'laqonli qiziqish uyg'otmaydi. Bundan tashqari, dasturlar tomonidan taqdim etilgan ingliz tili grammatikasi normativ shablon versiyada taqdim etilgan. Va

shuning uchun o'quvchining fikrini bayoni tabiiyligi yetarli emas, bu ayniqsa o'z fikrlarini ifodalashda seziladi, chunki klassik sintaksis o'quvchilarning haqiqiy nutq-fikr jarayonlariga zid keladi, bu yerda o'quvchi o'zining shahsiy fikrini bayon qilishdan ko'ra to'g'ri jumla qurish talabi muhimroqdir. Oddiygina fikrni bayon qilish uchun kitoblarda keltirilgan murakkab grammatik qoidalar asosida gaplar tuzishi lozim.

Chet tilini til muhitidan tashqarida o'qitishda kommunikativ yo'nalish sun'iy ravishda yaratilishi kerak. Biroq bunday muhitni yaratish maktab rahbariyati yoki fan o'qituvchisining imkon darajasidan tashqari. Dars davomida talabalarda nutq faolligiga bo'lgan ehtiyojini uyg'otish chet tilini o'qitishning butun jarayoni uchun zaruriy shartdir. И. А. Бредихина takidlaganidek, bu shartni amalga oshirishga to'siq "chet tillarini o'qitishni tematik tashkil etish va vaziyatni yahlitlik sifatida izohlash" [2. 10-bet]. Garchi o'qituvchi darsda "tabiiy" vaziyatni qayta yaratishga harakat qilsa-da, masalan, oziq-ovqat do'koniga borishda, bunday vaziyatning sun'iyliigi o'quvchi tomonidan yaqqol bilib turiladi va o'quvchilar tomonidan ushbu holatlar jiddiy qabul qilinmaydi, chunki tabiiy vaziyatning haqiqiy qiymati dars doirasiga o'tkaziladi va bu dars jarayonida olingan bilim va ko'nikma psevdoqiymatga aylanadi. Psevdo-qiymatga asoslanib, psevdo-aloqa paydo bo'lishi mumkin.

Ushbu muammoni hal qilish uchun metodistlar faqat ijtimoiy ahamiyatga ega qadriyatlarga (ijtimoiy, axloqiy, madaniy) asoslangan suniy yaratilgan vaziyatlardan foydalanishni taklif qiladilar. Do'stlikni ahamiyati, teatr, kinofilm, musiqaga bo'lgan munosabatlar kabi mavzular har qanday joyda: do'stlar orasida, ko'chada yoki sinfda muhokama qilinganda ham, ushbu vaziyatlar tabiiyligini saqlab qoladi. Bundan tashqari, bunday mavzularni muhokama qilish maktab o'quvchilarida o'z fikrini bildirish, o'z nuqtai nazarini isbotlash va himoya qilish, va shu orqali chet tilida muloqot qilish uchun tabiiy ehtiyojni uyg'otadi.

Bolalarga bilim va ko'nikmalarni o'zaro bog'lashni va bir bilim ko'nikmasini ikkinchisini o'zlashtirishda foydalanishni o'rgatishimiz lozim, ona tilida o'zlashtirilgan bilimni chet tilida ham unumli foydalanish ko'nikmalariga moslashtirishimiz lozim, biroq o'rganilayotgan til mamlakatining madaniyatini ham hisobga olishni ham o'quvchilarga o'rgatishimiz lozim. Nutq faoliyatining barcha turlarida har xil turdagi vazifalarni bajarish texnikasi orqali ham til o'rgatishda yaxshi natijalarga erishish mumkin. O'quvchilarga darslik, o'quv qo'llanmalar, audio, video materiallardan bir biriga bog'liq holda foydalanishni o'rgatishimiz lozim. O'quvchilar chet tilini o'rganish jarayonlarini rejalashtira olishlari muxim ahamiyatga ega. Demak, o'quvchilarga xorijiy tillarning o'rganishda oqilona usullardan foydalanishni o'rgatish, ular uchun yangi tilni o'rganish va muloqot maqsadlariga muvofiq undan amaliy foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

Bu o'quv rejada aks ettirilgan bo'lib, unda chet tili huddi ona tili kabi bir qatorda millatlararo muloqot tili sifatida "Til va adabiyot" fan sohasiga kiritilgan. Maktab

o'quv yuklamasidagi chet tili soatlari soni ortib bormoqda va shu bilan birgalikda chet tilini o'qitish metodikasi rivojlana bormoqda.

Boshlang'ich sinflarning o'quv dasturiga "Chet tili" fani kiritildi, unga ko'ra birinchi sinfdan biron bir chet tili va ikkinchi sinfdan rus tili o'qitila boshlanadi. Maktab kengashining qarori bilan, agar tegishli sharoitlar mavjud bo'lsa, chet tilini o'qitish soatlari ko'paytirilishi mumkin.

Bazaviy o'quv rejasida 5-ch va 6-chi sinflarda haftasiga 4 soat, 7-10 chi sinflarda 3 soat va 11-sinflarda 2 soat asosiy o'quv kursi uchun ajratilgan bo'lib, bu chet tilini umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish uchun maqbul minimal miqdorni anglatadi. Ammo, eng muhimi, bitiruvchi o'quvchilarning hoxishiga ko'ra o'ningchi va o'nbirinchi sinflarda chet tili dars soatlarini besh soatga oshirish mumkin.

Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun chet tilini o'qitish o'yin sifatida olib borish metodikasi ishlab chiqilgan va qo'llanilmoqda. Bunda yosh o'quvchilarni psixologik va fiziologik jixatlari inobatga olingan.

Ta'limning yuqori bosqichi bo'lmish yuqori sinflar, kasb maktablari, akademik litseylarda chet tilini chuqur o'rganish va unga asoslangan professional kasb sifatida qaraladi. Kasb maktablar, kollejlari va texnikum talabalariga o'zlari tanlagan kasbiy kompetensiya bilan bir qatorda biron bir xorijiy til ularning tanlagan kasbiga bog'liq terminalogiyalarni qo'llagan holda o'qitiladi. Masalan: tibbiyot texnikumi talabalariga meditsina, bemorni parvalishlash yoki farmatseftikaga oid so'z va iboralar asos qilib olingan dastur asosida o'qitiladi.

Chet tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini (KK) rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish xorijiy tillarni o'qitishda zamonaviy tushunchalarni rivojlantirishning turli bosqichlarida sodir bo'lgan bir qator o'zgarishlarni ko'rsatadi. Mashhur grammatika-tarjima usuli 20-asrning ikkinchi yarmida audiolingvistik kontseptsiya tomonidan mag'lub etildi, undagi asosiy e'tibor til ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan edi. Hozirgi vaqtda til o'rganishdagi yutiqlar ustoz tomonidan o'quvchilarga berilayotgan motivatsiyas va o'quvchilarning shaxsiy yutuqlariga erishishdagi reja asosida ish olib bora olishi qadrlanadi. Bu faqat o'quvchilarning bilim olish faolligini faollashtirishning turli vositalaridan foydalangan holda amalga oshirish mumkin.

Maktabda chet tilini o'rganish bilan bog'liq muammolarni hal qilish o'quvchilarning hayotiy tajribasiga mos kelmaydigan dasturlarni o'zgartirish, madaniy kompleksni shakllantirish uchun sharoit yaratish va chet tili orqali boshqa bir bilim yoki ko'nikmalarni o'rganish usullarini takomillashtirishdan boshlanishi kerak. Chet tilida chop etilgan texnika yangiliklari yoki biron bir qurulmaning texnik xususiyatlarini o'qish orqali ham til o'rganiladi ham yangi bilimga ega bo'ladi.

Mamlakatda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar chet tilni o'qitish darajasiga qo'yiladigan talablarning o'zgarishiga olib keladi. Kommunikativ kompetensiya har qanday faoliyat sohasining ajralmas muhim tarkibiy qismidir.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi chet tillarini o'qitish kontekstida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini yangilash zarurati bilan bog'liq. Jahonning globallashuvi sharoitida odamlarning faolligi oshishi, xalqaro hamkorlik chegaralarining kengayishi, milliy-madaniy merosga, bag'rikenglik hissini tarbiyalash munosabati bilan kommunikativ kompetensiyani chet tilini o'qitish jarayonida shakllantirish ustuvor maqsaddir. Chet tillarini samarali o'qitish sharoitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish muammosi juda ko'p muhokama qilinmoqda va bugungi kunda ko'plab nazariyotchilar va amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan o'rganilmoqda. Bundan tashqari, 3 darajali kompetensiyalar tizimida kommunikativ kompetensiya umumiy va predmetga xos bo'lgan bilan bir qatorda asosiylar toifasiga kiradi. Davlat ta'lim standarti rivojlangan kommunikativ kompetensiyaga ega bo'lgan o'quvchi va kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Zamonaviy maktab sharoitida ta'lim kommunikativ va ijtimoiy faol shaxsni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. O'rta maktab o'quvchilari uchun kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati juda katta, chunki u barcha ta'lim faoliyatiga ta'sir qiladi. Boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati o'quvchilarning psixologik qobiliyatlarini ta'minlaydi, bu esa muvaffaqiyatli o'quv jarayonini tashkilashga hissa qo'shadi. Muloqot qila olish qobiliyati maktab bitiruvchilari uchun kasbiy faoliyatni samarali egallash uchun zarur. Maktab yoshidagi bolalarda lingvistik hodisalarga katta qiziqish va ijtimoiy doirani kengaytirish istagi namoyon bo'ladi.

Ushbu sohadagi muammolarni yetarlicha o'rganishga qaramay, kommunikativ kompetensiya darajasi sezilarli darajada oshmadi. Bunday holda, biz quyidagi qarama-qarshiliklar haqida gapirishimiz mumkin:

- jamiyat hayotining turli sohalarida yuqori darajadagi kommunikativ malakaga ega bo'lgan mutaxassislar bo'lgan talab va uning yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- chet tilini o'qitish jarayonida kommunikativ usullardan foydalanish zarurati va ularni chet tillarni o'qitish amaliyotiga joriy etish bo'yicha aniq tavsiyalarning yo'qligi;
- chet tilini o'qitish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni yaratish zarurati va ushbu shartlarni modellashtirish va amalga oshirishning yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Yuqoridagilardan quyidagi xulosa kelib chiqadi: maktab yoshidagi o'quvchilarga chet tilini o'qitishda tabiiy muhitga imkon boricha yaqinlashtirilgan muhitni yaratgan holda ta'lim berish.

Maktabda chet tilini o'qitish dasturini umumiy yozma va og'zaki muloqotga asoslangan holda tuzish.

Kasbga yo'naltirilgan o'quv muassasalarda chet tilini o'zlashtirilayotgan kasbga bog'liq holda o'qitish.

Fodalanilgan adabiyotlar

1. Common European Framework of reference for language learning and teaching. Draft 1. - Strasbourg: Council of Europe, 1993. - 204 p.
2. И. А. Бредихина «Методика преподавания иностранных языков. Обучение основным видам речевой деятельности» Учебное пособие-Уральский университет-2018 г.
3. Milman V. E. Shaxsning motivatsion sohasini o'rganish usuli / Psixodiagnostika bo'yicha seminar. Motivatsiya va o'z-o'zini tartibga solishning psixodiagnostikasi. - M., 1990.